



Development of intellectual and cognitive potential of students in the context of the credit-module system

Jetkerbay OTEPBERGENOV¹

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajinyoz

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2024

Received in revised form

15 November 2024

Accepted 15 December 2024

Available online

25 January 2025

Keywords:

credit-module system,
modern educational system,
intellectual-cognitive,
student,
independent work,
potential.

ABSTRACT

The credit-module system is widely implemented in the higher education systems of advanced countries around the world. A distinctive feature of this educational approach is its emphasis on students' independent work within the learning process. This article explores ideas for fostering the intellectual and cognitive potential of students within the framework of the credit-module system.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss6-pp8-12>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

kredit-modul tizimi,
zamonaviy ta'lim tizimi,
intellektual-kognitiv,
talaba,
mustaqil ishlash,
salohiyat.

Kredit-modul tizimi dunyoning ilg'or mamlakatlari oliy ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan tizimdir. Ushbu ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri o'quv jarayonida asosiy e'tibor talabalarning mustaqil ishlashiga qaratilganligidir. Ushbu maqolada kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini shakllantirish haqidagi fikrlar bayon etilgan.

¹ PhD, Associate Professor, Head of the Department of Informatics Teaching Methods, Nukus State Pedagogical Institute named after Ajinyoz.

Интеллектуально-когнитивное развитие потенциала студентов в условиях кредитно-модульной системы

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

кредитно-модульная система,
современная система образования,
интеллектуально-когнитивное развитие, студент,
самостоятельная работа, потенциал.

Кредитно-модульная система нашла широкое применение в высшем образовании многих ведущих стран мира. Одной из ее ключевых характеристик является усиленный акцент на самостоятельную работу студентов в процессе обучения. В данной статье анализируются подходы, направленные на развитие интеллектуально-когнитивного потенциала студентов в условиях функционирования кредитно-модульной системы.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi jamiyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlar ijtimoiy rivojlanish paradigmasining o'zgarishi, umuman ta'lim tizimiga, xususan, oliy ta'lim tizimiga yangi talablarni qo'moqda. Jamiyat barqaror o'z-o'zini rivojlantirish, ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalash zarurati bilan ajralib turadigan raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash uchun o'zgarishlar va yangilanishlar dolzarbdir [4]. Ta'lim mamlakat iqtisodiyotining asosiga aylangan hayotning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Chunki u ijtimoiy hayotimizning, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanishi darajasini anglatadi. Bizga ma'lumki, bugungi kunda ma'nan yetuk, o'z kasbini mukammal egallagan, kasbiy kompetensiyalarga ega raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, ta'lim sohasida bo'lajak pedagog-kadrlarni tayyorlash, oliy ta'lim muassasalarida ta'limning sifatini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda [3]. Chunki har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashdek murakkab va o'z navbatida sharaflil vazifani bajarishda pedagog-kadrlarning salohiyatiga bog'liqdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni alohida ahamiyat kasb etdi [1]. Farmonning ijrosini ta'minlashga doir O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarori bevosita oliy ta'lim tizimini isloh qilishga asos bo'lgan me'yoriy hujjat bo'ldi. Unga ko'ra oliy ta'lim muassasalarining kredit-modul tizimiga o'tishi ta'limning sifat darajasining ko'tarilishining asosiy omillarining biri sifatida belgilangan [2]. Bu borada o'zining ilmiy izlanishlarini olib borgan olim, R.I. Urazgaliyeva ta'limni tashkil etishning kredit-modul tizimi talabalarning o'z-o'zini tarbiyalash faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish omili ekanligini ilmiy asoslagan [5].

O'zining nomlanishidan ko'rinib turganidek kredit-modul tizimi ikkita, ya'ni "modul" va "kredit" singari ilmiy fenomenlardan tashkil topgan. Modulli ta'lim deganimizda asosan bilimlarni nazorat qilish bilan moslashgan, yaxlitlik va tugallanganlikka ega o'qish axborotidagi mantiq bilan belgilangan bo'lim tushuniladi. Unga tegishli metodik materiallar o'qish kursning mundarijasi bo'lagi ta'limiy modul hisoblanadi. O'qish moduli esa har bitta o'qish topshirig'ini bajarish vaqti, nazorat va hisobga olish usullari, o'qish materiallarini o'rganishni o'z ichiga oldi. Ya'ni, modulli


o'qitishning mohiyati shundani iboratki, talaba o'ziga taklif etilgan individual o'qish dasturlari asosida mustaqil ish olib boradi. Bu kabi o'qish dasturlarida harakatlarning rejasi, axborotlar bloki, o'qitish natijalariga erishish bo'yicha metodik tavsiyanomalar bo'lishi zarur.

O'qituvchi esa bu sharoitda kuzatishi, maslahat berishi, axborotlarni o'zlashtirish bo'yicha harakatlarni yaratishi singari vazifalarni bajarishi talab etiladi. Kredit tizimi nafaqat o'quv yuklamasini, balki talabaning barcha yutuqlarini hisobga olish imkonini beradi. Talaba o'rganish va o'zlashtirish uchun kerakli miqdordagi o'quv fanlarini tanlaydi, ularni ma'lum vaqt ichida o'zlashtirish majburiyatini oladi [4]. Bu modul nazoratining obyektiv ma'lumotlaridan dalolat beradi. Ta'lim jarayonini bunday tashkil etish talabalarni ta'limning mazmunini sifatli o'zlashtirishiga yo'naltiradi. Agar an'anaviy ta'limda o'qituvchi tayyor bilim va ko'nikmalarining tarjimoni, talaba yesa, asosan, passiv so'zlovchi vazifasini bajarsa kredit-modul tizimida o'qituvchi talabaning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning kognitiv va intellektual faoliyat tashkilotchisi hisoblanadi.


NATIJALAR VA MUHOKAMA.

O'zbekistonda kredit ta'lim tizimiga asoslangan milliy modelni ishlab chiqishda, Yevropa ECTS krediti va Amerika kredit soatlari tizimlarining yutuqlarini inobatga olgan holda yuqori ta'lim sifatini va dunyo ta'lim jarayonlariga integratsiyalashish uchun ishonchli asosni tanlash maqsadga muvofiqdir [2]. ECTS kredit tizimi ko'p millatli Yevropa an'analarini inobatga olgan holda turli ta'lim tizimlarini yaqinlashtiradi.

Kredit-modul tizimida ahamiyat beriladigan asosiy masalalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:



Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:



Oliy ta'limda ta'limni tashkil etishning kredit-modul tizimi doirasida dastavval talabalarining o'z-o'zini tarbiyalash faoliyati va intellektual-kognitiv salohiyatga erishishga doir kompetensiya ko'nikmalarini shakllantirish muammosini hal etishni talab etadi. Haqiqatdan ham, oliy ta'lim muassasalarida talabalarining intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirishga doir tegishli ilmiy-uslubiy ta'minot ta'lim tizimini kredit asosida tashkil etishda ijobiy mahalliy tajribalar va rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or pedagogik tajribalaridan foydalanilish talabalarining bilish faoliyati ko'nikmalarini samarali shakllantirishni ta'minlashga zamin yaratadi.

Oliy ta'limda ta'limni tashkil etishning kredit-modul tizimini joriy etish orqali talabalarining intellektual bilish faoliyati ko'nikmalarini shakllantirishga doir bilimlarni ijodiy o'zlashtirish, o'quv jarayonini tartibga solish va bilimlarning hajmini hisobga olgan holda mutaxassislik, tanlov asosida o'quv trayektoriyasi asosida bilish faoliyati ko'nikmalarini shakllantirishda talabaning hayotiy tajribasini boyitish va o'zgartirishga erishish mumkin. Shunday qilib, talabalarining intellektual-kognitiv, ya'ni bilish faoliyati ko'nikmalarini shakllantirishda kredit-modul tizimining pedagogik salohiyati qo'yidagilar bilan belgilanadi:

- o'qitishning kredit-modul tizimining ochiqqligi va konseptualligi;
- kontent birliklarini me'yorlashgan yo'naltirilgan kreditlar bo'yicha baholashga dialektik muqobil sifatida talabalarining bilish ko'nikmalarini shakllantirish diagnostikasining qo'shimcha usullarini qo'llashga bo'lgan ehtiyojning vujudga kelishi;
- talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatida o'z-o'zini baholash va o'zini o'zi nazorat qilish shakllarini, shuningdek mustaqil ishlarga jalb qilish, o'z-o'zini rivojlantirishning individual loyihalarini ishlab chiqish ishlab chiqish;
- bilish va mustaqil o'qish faoliyati ko'nikmalarini shakllantirishda talabalarining motivlarining ijobiy dinamikasini ta'minlovchi ta'lim faoliyatini yo'lga qo'yish;

– talabalarning mustaqil ishi uchun o'zgaruvchan ilmiy-metodik ta'minot bankining yaratilishi, ya'ni darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-metodik majmualar, axborot bazalari va zamonaviy ishlanmalarni talaba faolligini oshirishdagi imkoniyatlarining kengligi va h.k.

Demak, kredit-modul tizimida talabalarning intellektualkognitiv salohiyatini oshirishda aniq belgilangan maqsadga erishishga doir ta'lim olishga bo'lgan yondashuvlarni, tamoyillarni, funksiyalarni to'g'ri tanlash va talabalarning bilim olish tizimini ta'lim trayektoriyalari doirasida tashkil etish kafolatlangan natijalarga olib keladi.

XULOSA

O'qitishni tashkil etishning kredit-modul tizimida eng asosiysi talabalarning o'z-o'zini tarbiyalashning mehnat qadriyati sifatidagi ustunlik rolini anglashi asosida ularning kognitiv kompetensiyalari rivojlanib boradi. Talabalarning o'z-o'zini tarbiyalashi va kognitiv kompetensiyasini shakllantirish faoliyati ko'nikmalarini shakllantirishda ta'limni tashkil yetishning kredit-modul tizimining pedagogik imkoniyatlari ochib berilishi zarur.

Talabaning o'z-o'zini tarbiyalash faoliyati ko'nikmalarini va kognitiv kompetensiyasini shakllantirish shakllantirish omili sifatida o'qitishni tashkil yetishning kredit-modul tizimidan foydalanish modelini amalga oshirish samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar ishlab chiqish zarurligi kelib chiqadi. Shunday qilib, talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini kredit-modul tizimi sharoitida shakllantirish oliy ta'lim muassasasida puxta o'ylangan va aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni tashkillashni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash tug'risida»gi 2020 yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2020 y., 06/20/6097/1431-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31-dekabrdagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari tug'risida»gi 824-son Qarori. onun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/5193564>.

3. Sapayev M., Qodirov F.M., & Abdullayeva S.M. (2022). Kredit tizimi asosida ta'lim jarayonlarini rejalashtirishning afzalliklari va muammoli jihatlari. Перспективы развития высшего образования, (11), 77-86.

4. Karimov I. N. (2020). Development of intellectual competence of students in the educational process. Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan), (2 (87)), 16-21.

5. Уразгалиева Р.И. Кредитно-модульная система организации обучения как фактор формирования умений самообразовательной деятельности студента. Автореф. Дисс к.п.н. Оренбург. 2010.